

NAZORAT OSTIDAGI SHAXSLARGA NISBATAN O'RNATILGAN CHEKLOV,
HUQUQ VA MAJBURIYATLARNING JAZONI O'TASHDAGI O'RNI

Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Bafoev Mirjahon Botir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, davlatimizda so'nggi yillarda jinoyat ijroiya huquqi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, bu tizimni rivojlantirishga qaratilayotgan islohotlar va hozirgi kundagi mavjud ayrim muammolar, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishda nazorat ostidagi shaxslarning huquqlari hamda erkinlari ularga yuklatilgan majburiyatlar, ularning jazoni ijro etishdagi o'рни va ahamiyati hamda bu boradagi muammolarni bartaraf etish borasidagi takliflar yoritib berilgan.*

Tayanch so'zlar: *probatsiya, probatsiya nazoratidagi shaxs, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo, mahkumning huquqiy holati, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, majburiy jamoat ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish.*

Аннотация: *В данной статье освещены реформы, проводимые в нашей стране в сфере уголовно-исполнительного права в последние годы, реформы, направленные на развитие этой системы, и некоторые существующие сегодня проблемы, права и свободы поднадзорных лиц при исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы, возложенные на них обязанности, их роль и значение в исполнении наказаний, а также предложения по устранению проблем в этой области.*

Ключевые слова: *пробация, пробационное лицо, наказание, не связанное с лишением свободы, правовое положение осужденного, исправительные работы, ограничение свободы, обязательные общественные работы, лишение определенного права.*

Abstract: *This article examines the reforms being carried out in our country in the field of criminal-executive law in recent years, the reforms aimed at developing this system, and some existing problems today, the rights and freedoms of supervised persons in the execution of non-custodial sentences, their assigned duties, their role and importance in the execution of sentences, as well as proposals for eliminating problems in this area.*

Keywords: *probation, probationary officer, non-custodial sentence, convicted person's legal status, correctional labor, restriction of liberty, compulsory community service, deprivation of a certain right.*

So'nggi yillarda sud-huquq, jazoni ijro etish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish

maqsadida amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar zahirida ham "shaxs-jamiat-davlat" tamoyili mavjud. Shaxsni birinchi darajaga ko'tarish ham sud-huquq sohasida olib borilayotgan davlat siyosatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Olib borilayotgan islohotlar natijasida jamiyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish samarali tashkil etilmoqda. Bu borada respublikamizda so'nggi yillarda bir qator islohotlar olib borilib, jinoyat-ijroiya tizimini tubdan isloh qilish, takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda jazoni ijro etishni takomillashtirish, nazoratdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash, qayta jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida, ularga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlar ularni jazoni o'tashdagi ahamiyatini oshirish maqsadida qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlarga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bugungi kunga qadar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi probatsiya nazoratidagi shaxslarni ustidan nazoratni yanada takomillashtirishga imkon berdi.

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar natijasida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etilishini ta'minlaydigan probatsiya xizmati tashkil etilib, ushbu xizmat ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlash va jazo tayinlangan shaxslarni nazorat qilishda boshqa davlat organlari, hokimiyat organlari bilan hamkorlik amalga oshirilmoqda.

2024-yilning 7-avgustida "Probatsiya to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, bu sohada tub burilish yasadi. Qonunda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlanishi bilan bog'liq mavjud bo'lgan bo'shliq va kamchiliklar to'ldirilib, boshqa xalqaro davlatlardan andozalar olindi. Hususan:

Amerika qo'shma shtatlarida mavjud bo'lgan Probatsiya departamentining nizomida elektron braslet haqida keltirib o'tilgan bo'lib, bu tushuncha bizning qonunimizdagi 23-moddada o'z aksini topdi.

Rossiya Federatsiyasi Probatsiya to'g'risidagi qonunga asosan ozodlikni cheklash jazosidagi ayrim cheklov va taqiqlarni nazorat qiluvchi organning o'zi bekor qilishi yoki yangi cheklov va taqiqlar kiritishi bizning qonunda ham o'z aksini topdi. Ya'ni nazorat ostidagi shaxsga nisbatan yuklatilgan cheklovlarni qisqartirish, o'zgartirish yoki ko'paytirish probatsiya xodimining tashabbusi bilan sudga taqdimnoma kiritish orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

Probatsiya to'g'risida qonunning qabul qilinishi natijasida probatsiya xizmatining huquqlari va majburiyatlari aniq belgilab berildi. Mahkumning huquqiy holati, uning huquqlari, majburiyatlari, belgilab berilgan taqiq(cheklov)larni bajarmaganlarida qanaqa oqibatlarga olib kelishi qonun bilan belgilab berildi. Unga ko'ra quyidagi asosiy tushunchalar kiritildi:

Probatsiya - muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta'minlashga, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini

olish hamda ularga barham berishga, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

Probatsiya nazorati - muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxslarning, shartli hukm qilingan shaxslarning va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirishga, ularda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda jamiyatda yurish turish qoidalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirishga, sud tomonidan belgilangan taqiqlar(cheklovlar)ga va majburiyatlarga rioya etishini ta'minlashga, shuningdek ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga qaratilgan faoliyat;

Probatsiya nazoratidagi shaxs - muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan, shartli hukm qilingan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan hamda probatsiya hisobiga qo'yilgan shaxs¹;

Mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan ta'qiq, cheklovlar mahkumlarning huquqiy holati ya'ni ularga nisbatan qo'llaniladigan muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan bo'ldi².

Xalqaro huquqiy narzariyalarga tayanib mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlar ularning huquqiy holatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim.

Mahkumlarning huquqiy holati deganda jahon hamjamiyati olimlarining fikricha, bu jazoni ijro etishda vujudga keladigan jazoning turi, maqsadi va mahkumning xulqi bilan bog'liq bo'lgan asosiy fuqarolik huquq va majburiyatlari yig'indisidan iborat bo'lib, mahkumlar huquqiy holatining belgilanishi siyosiy va axloqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mahkumlarning huquqiy holati siyosiy jihatdan jamiyat va davlatning mahkumga bo'lgan munosabatini anglatadi. Shundan kelib chiqib, mahkumning huquqiy holati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bog'liq bo'lgan jazoning maqsadi bilan belgilanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat ijroiya kodeksiga asoslanib mahkumlarga nisbatan qiyosqa solish va boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi³.

Mahkumlar huquqiy holati - bu jazoni ijro etishda vujudga keladigan jazoning turi, maqsadi va mahkumning hulqi bilan bog'liq bo'lgan asosiy fuqarolik huquq va majburiyatlar yig'indisidan iborat bo'lib, mahkumlar huquqiy holatining belgilanishi siyosiy

¹ O'zbekiston Respublikasi. (2024). Probatsiya to'g'risidagi Qonun. O'RQ-938-son, 07.08.2024. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-7050441>

² Исмаилов И., Абдурасулова Қ.Р., Шодиев А. А., Усмонов Д. М., ва бошқалар.// Жиноят-ижроия ҳуқуқи: Дарслик / - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2021.-25 бет.

³ Исмаилов И., Абдурасулова Қ.Р., Шодиев А. А., Усмонов Д. М., ва бошқалар.// Жиноят-ижроия ҳуқуқи: Дарслик / - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2021.-32 бет.

va ahloqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Jumladan, mahkumlarning huquqiy holati siyosiy jihatdan jamiyat va davlatning mahkumga bo'lgan munosabatini anglatadi. Chunonchi, mahkumning huquqiy holati jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy tuzumiga bog'liq bo'lgan jazoning maqsadi bilan belgilanadi. Maxkumlar huquqiy holatining qonun darajasida belgilanishining amaliy ahamiyati jazoning maqsadini amalga oshirishning usul va vositalarini anglatadi. Shuning uchun ham mahkumlar huquqiy holatlarining siyosiy va amaliy ahamiyati bir-biri bilan chambarchas bog'likdir. Jazoni o'tayotgan mahkumlar ularning jazosi qanday bo'lmasin o'z majburiyatlarini bajaradilar, qonunda belgilangan doirada sud xukmida belgilangan tartib bilan bog'liq bo'lgan holatlarda belgilanadigan huquqlardan foydalana oladilar. Buning mazmuni shundaki, jazoning turi va mazmunidan kelib chiqqan holda mahkum asosiy huquq va majburiyatlaridan hamda jamiyat a'zolidan mahrum etilmaydi. Ularda huquq layoqati, muomala layoqati va fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub'ekti bo'lib qolish huquqi saqlanib qolinadi. Ammo mahkumlar huquqiy holati boshqa fuqarolarning huquqiy holatidan farq qiladi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksining "Mahkumlar: jazoni o'tash tartibi va shartlariga rioya etishga, jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarishga majburlarlar. Mahkumlarning o'z zimmlariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarmasligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi"-deb belgilangan⁵.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan belgilanadigan ta'qiq(cheklov)lar va majburiyatlar ularning yoshi, jinsi, sog'lig'ining holati, xulq-atvori, ijtimoiy moslashtirish dasturlaridagi ishtiroki hamda ushbu shaxslar sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xafvlilik darajasi va xususiyati, ilgari jinoyat sodir etganlik faktlari mavjudligi, shuningdek yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanganligi va ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinganligi hisobga olingan holda tabaqalashtiriladi. Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ijtimoiy moslashtirish choralari ularning xulq-atvorini ijtimoiy-psixologik baholash natijalari asosida yakkat tartibda qo'llaniladi⁶.

Bugungi kunda mahkumlarning huquqlari va majburiyatlarini ta'minlashda unga beriladigan jazo choralari qonun bilan belgilab o'tildi. Ammo hozirgi kunda ba'zi sodir etilayotgan, xususan kompyuter-texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan yuklatilgan cheklov(ta'qiq)larni nazorat qilish muammoli vaziyatga kelib qolmoqda.

⁴ Умаралиева Д.Н. Значение правового положения лиц, находящихся под пробационным контролем, и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

⁵ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодекси // URL: <http://lex.uz/docs/163629>

⁶ O'zbekiston Respublikasining Qonuni – "Probatsiya to'g'risida", O'RQ – 938, 07.08.2024-yil

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 48¹-moddasi asosida tayinlanadigan **“Ozodlikni cheklash”** tariqasidagi jazo asosida, aloqa vositalaridan shuningdek Internet jahon tarmog'idan foydalanmaslik cheklovlari mavjud bo'lib, uni amalga oshirish mexanizmlarida muammolar vujudga kelmoqda. Ya'ni sud tomonidan ushbu ta'qiq qo'yilganidan so'ng probatsiya xodimlari tomonidan unga bu ta'qiq(cheklov) mazmuni tushuntirilib o'tiladi.

Lekin, probatsiya nazoratidagi shaxs o'ziga nisbatan tayinlangan jazodan tegishli xulosa chiqarmay yana xuddi shu jinoyatni sodir etish holatlari kuzatilmoqda. Firibgarlik jinoyatining axborot tizimidan foydalanib sodir etilganidan so'ng, sud tomonidan yuqoridagi ta'qiq va cheklov albatta qo'yiladi.

2023-yil va 2024-yilda sodir etilgan jinoyatlar statistikasiga nazar soladigan bo'lsak 2023-yilga nisbatan keyingi yilda bu kabi jinoyatlar nazorat ostidagi shaxslar tomonidan qayta sodir etilib, jinoyatlar soni **23,1%**ga ortgani ko'rilmogda. Shu kabi jinoyatlardan yuqoridagi taqiq va cheklov yuklatilgan shaxslar tomonidan 193 ta yangi ya'ni qayta jinoyat sodir etilgan. Ushbu ma'lumotlarga ta'yangan holda yuklatilgan ta'qiq va cheklovni nazorat qilish mexanizmlari to'liq takomillashtirilmagani ma'lum bo'ldi.

Fikrimizcha, ozdlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning ijrosini ta'minlashda jazo tayinlangan shaxsga nisbatan yuklatilgan ta'qiq(cheklov)ningo'rni muhim ahamiyatga ega. Shu bois bu cheklovlarning ijrosini ta'minlashda quyidagi mexanizmlarni amalga oshirishni tavsiya qilamiz;

Ushbu cheklov yuklatilgan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga olingan barcha mobil telefon raqamlarini jazo muddati tugaguniga qadar o'chirib qo'yish, bu borada tegishli organlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, unda amalda faol bo'lgan bo'lgan raqamlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlab, tegishli organga xabar berib ularni faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki faolsizlantirish.

Agarda nazorat ostidagi shaxs tomonidan ta'qiq va cheklovlarga rioya qilmay, o'z faoliyatini amalga oshirib yurgan bo'lsa, II O'larining tezkor-qidiruv bo'limlarining shu yo'nalishlaridagi kiberxavfszlik guruhlariga so'rov xatlari bilan murojaat qilib, tekshirishni amalga oshirish mumkin.

Ammo bugungi kunda probatsiya xizmatining boshqa tuzilmalar bilan hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi tufayli bu kabi taqiq va cheklovlarning ijrosini ta'minlash qiyinlashib bormogda.

Shuni aloxida nazarda tutish lozimki, agarda bu kabi cheklovlarning ijrosi ta'minlanmasa sudning hukmi ijrosiz qolmogda va qayta jinoyatlar soni ko'paymogda.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, nazorat ostidagi shaxsga nisbatan o'rnatilgan cheklov, huquq va majburiyatlarning jazoni o'tashdagi alohida o'rin egallaydi. Xususan: takroriy jinoyatchilikni oldini olish, shaxsni qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish, ijtimoiy hayotga moslashtirish va reabilitatsiya qilish, jamiyat xavfszligini ta'minlash va jazoning maqsadiga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Ichki ishlar organlari to'g'risida”, O'RQ – 407, 16.09.2016-yil
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Probatsiya to'g'risida”, O'RQ – 938, 07.08.2024-yil
6. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Shodiev A. A., Usmonov D. M., va boshqalar.// Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik / - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.-25 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Jinoyat- ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4006-son (07.11.2018)li qarori.,//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
8. Умаралиева Д.Н. Значение правового положения лиц, находящихся под пробационным контролем, и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC